



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—aprel

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 13842,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 134,6 % ni tashkil etdi.
- Toshkent shahrida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 113,2 % ga yetdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir.

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar—aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 13 842,8 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




2018 yil yanvar—aprel oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar (jami)	13 842,8	113,2
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 427,4	120,0
Moliyaviy xizmatlar	3 347,8	134,6
Transport xizmatlari	1 687,1	113,8
shu jumladan: avtotransport xizmati	1 050,5	101,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	531,7	105,7
Savdo xizmatlari	3 909,4	101,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	604,5	103,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	592,3	104,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	240,0	111,9
Ijara xizmatlari	258,4	100,1
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	64,8	101,6
Shaxsiy xizmatlar	180,2	100,3
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	350,2	143,9
Boshqa xizmatlar	649,0	108,7

2018 yil yanvar—aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (134,6 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (143,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,0 %), transport xizmatlar (113,8 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (111,9 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

2018 yil yanvar—aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamin kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—aprel oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (62,3 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'llovchilarni) yo'lida boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar—aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (28,2 %); moliyaviy xizmatlari (24,2 %); transport xizmatlari (12,2 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,3 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,4 %); ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,3 %) tashkil etadi.

Toshkenr shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul:

Aleshunina O.V.

(71) 230-88-15